

TOMORQA XO'JALIKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY

YONDASHUVLARI

Otabekov Javdod Nurulla o'g'li

Guliston davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası o'qituvchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda aholi tomorqalaridan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslari yoritilgan. Tomorqa xo'jaliklarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, ularning daromadlilik darajasi va rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, tomorqalarning o'rtacha hajmi va ularning rentabelligi bo'yicha ma'lumotlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida tomorqalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Aholi tomorqalari, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy samaradorlik, daromad, innovatsiya, investitsiya, rentabellik

Abstract: This article discusses the economic foundations of the effective use of household plots in Uzbekistan. The impact of household plots on the country's economy, their profitability and development paths are analyzed. Data on the average size of household plots and their profitability are also reviewed. Based on the results of the study, proposals are put forward to improve the efficiency of household plot use..

Key words: Households, agriculture, economic efficiency, income, innovation, investment, profitability

Aholi tomorqalari O'zbekistonda qishloq xo'jaligining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi. So'nggi yillarda tomorqachilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, tomorqalar ortiqcha mahsulotlarni sotish orqali qo'shimcha daromad olish imkonini beradi. Ushbu maqolada tomorqachilik xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi.

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**“Hududlarni sanoatlashtirish va
innovatsion hududga aylantirish
istiqbollari: xalqaro tajriba, muammo
va yechimlar”**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI
TO‘PLAMI

2025-yil 14-15-Aprel



GULISTON-2025

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Hududlarni sanoatlashtirish va
innovatsion hududga aylantirish
istiqbollari: xalqaro tajriba, muammo
va yechimlar”**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

2025-yil 14-15-Aprel

GULISTON-2025

UDK: 338.1

KBK:65.05

H 76

“Hududlarni sanoatlashtirish va innovatsion hududga aylantirish istiqbollari: xalqaro tajriba, muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Guliston davlat universiteti.–G.: 2025.- 1764 b.

Ushbu to‘plam “Hududlarni sanoatlashtirish va innovatsion hududga aylantirish istiqbollari: xalqaro tajriba, muammo va yechimlar” mavzusida bo‘lib, unda hududlarni sanoatlashtirishning global tendensiyalari: xalqaro tajriba va yangi texnologiyalar, yangi sanoatlashtirish va innovatsion texnologiyalarning moliyaviy-huquqiy mexanizmlari (vositalari)ni takomillashtirish investitsiyon jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga zamonaviy yondoshuvlar, Xitoy tajribasi asosida Sirdaryo viloyatida bio-farmatsevtika, qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, elektro-texnika, tibbiyot, ta‘lim sohalarini rivojlantirish orqali ilg‘or innovatsiyalar hududiga aylantirish istiqbollari, hududlarni innovatsion rivojlantirishning yangi bosqichi: sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi xorijiy tajribalar, yashil iqtisodiyot - hududlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlashning muhim sharti: resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish va uni amalga oshirishdagi muammolar va imkoniyatlar, hududlarni innovatsion rivojlantirishda kadrlar tayyorlash va ilg‘or bilimlarni qo‘llashda ta‘lim tizimining yangilanishi va malakali mutaxassislarni jalb qilishning ilmiy va amaliy jihatlari, intellektual, innovatsion texnologiyalar kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallarning bayoni keltirilgan.

To‘plamga oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo‘mita va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistr va talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan. Shuningdek, xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamidagi materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va keltirilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o‘zlari mas‘uldirlar.

Anjuman materiallari Guliston davlat universiteti Ilmiy texnik kengashining 4-sonli qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

TAHRIR HAY’ATI

- | | |
|--|--|
| 1. Xodjiyev Muxsin Tadjiyevich | GulDU rektori, tahrir hay’ati raisi; |
| 2. Murodov Orif Jumayevich | GulDU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, tahrir hay’ati raisi muovini; |
| 3. Djurayev Mansur Egamberdiyevich | GulDU, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, mas‘ul kotib; |
| 4. Sharipov Fazliddin Galiyevich | GulDU, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, tahrir hay’ati a‘zosi; |
| 5. Maxmudov Sherali Xusanovich | GulDU, Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti dekani, tahrir hay’ati a‘zosi; |
| 6. Norimova Guljahan Abdiganiyevna | GulDU, Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i, tahrir hay’ati a‘zosi |
| 7. Begimqulov Javohirbek Jo‘raqul o‘g‘li | GulDU, Iqtisodiyot kafedrasida tayanch doktoranti, tahrir hay’ati a‘zosi |

Kompyuterda sahifalovchilar: J.Begimqulov, J.Husenov

Ushbu to‘plam mualliflarning qo‘lyozmalari asosida o‘zgartirishlarsiz to‘laligicha tayyorlandi va chop etildi.

©Guliston davlat universiteti, 2025-yil.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat shakllanishining asosiy global tendensiyasini xom ashyo va sanoat iqtisodiyotidan yangi iqtisodiyotga o'tish bo'lib, uning asosini intellektual resurslar, bilim va axborot texnologiyalari tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida, asosan, innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan holda, sanoat, jamiyat va fan o'rtasidagi munosabatlarning shunday tizimi shakllanmoqda, bunda innovatsiyalar ushbu toifalarning rivojlanishi uchun asos bo'lib, ular o'z navbatida, rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. innovatsiyani rivojlantirish, uning yordamida innovatsion jarayon va fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari aniqlanadi.

Shunday qilib, davlat, biznes va ilmiy muhit, shuningdek jamiyat birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan mamlakatning innovatsion rivojlanishi mexanizmini shakllantirishi mumkin, shuning uchun ham rivojlanishning innovatsion yangi turi O'zbekiston mintaqalarini ham to'liq qamrab olishiga davlatimiz siyosatida muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 7-aprel kuni Sirdaryo viloyatiga tashrifida Sirdaryo viloyatni innovatsion hududga aylantirishni muhim vazifa sifatida belgilab berdilar.

Universitetimizda bo'lib o'tayotgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ham aynan “Hududlarni sanoatlashtirish va innovatsion hududga aylantirish istiqbollari: xalqaro tajriba, muammo va yechimlar” mavzusiga bag'ishlangani ham bejizga emas.

Sirdaryo viloyatida O'zbekiston elektr energiyasining uchdan bir qismi, charm va charm mahsulotlarining 16 foizi, shuningdek farmasevtika mahsulotlarining qariyb 9 foizi ishlab chiqariladi. Ushbu viloyat poliz mahsulotlari yetishtirish bo'yicha respublikada birinchi o'rinda turadi. Bundan tashqari, ushbu viloyatda yirik va muvaffaqiyatli Xitoy-O'zbekiston qo'shma loyihalaridan biri amalga oshirilgan. Sirdaryo keramik plitkalari mamlakatning deyarli barcha burchaklarida sotiladi, ular hatto qo'shni Qozog'iston va Tojikiston iste'molchilariga ham yaxshi tanish. Bu Sirdaryo viloyatidagi Peng-Sheng O'zbekiston-Xitoy qo'shma sanoat kompleksida amalga oshirilayotgan 30 loyihadan bittasi.

Ushbu viloyat aholisining asosiy yosh guruhlari bo'yicha boshqa hududlar bilan taqqoslaganda viloyat aholining nisbatan katta qismi “navqiron” yoshda ekanligi ham hududiy imkoniyat va salohiyatlarimizni yanada oshiradi.

Viloyatimizni Innovatsion hududga aylantirish bo'yicha iqtisodiyotimizning drayveri bo'lgan energetika sohasida qisqa muddatlarda viloyatining Shirin shahri va Boyovut tumani hududida Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi tomonidan barpo etilgan, umumiy quvvati 1500 MVt bo'lgan zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi, Xovos tumanida Turkiyaning “Cengiz Yenerji” kompaniyasi tomonidan qurilgan quvvati 220 MVt bo'lgan

yangi gaz-porshenli issiqlik elektr stansiyalarini ishga tushirilgani bu boradagi imkoniyatlarimizni yanada mustahkamladi.

Ushbu stansiyalarning ishga tushirilishi 13,1 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Unda eng zamonaviy, energiya tejamkor texnologiyalar oʻrnatilishi hisobiga yiliga 1,3 mlrd kub metr tabiiy gaz tejaladi.

Soʻnggi olti yilda viloyatga 30 trillion soʻm investitsiya jalb qilinib, 6 ming 640 ta yangi korxona ishga tushirilgan. Bu orqali 55 mingta doimiy ish oʻrni yaratilgan, 17 mingta oila kambagʻallikdan chiqarilgan.

Sirdaryo viloyatida ham tadbirkorlar koʻpaydi. Ilgari boʻlmagan qurilish materiallari, farmasevtika, charm va oziq-ovqat sanoati kabi yangi tarmoqlar paydo boʻldi. Xususan, qurilish materiallarida 274 ta loyiha amalga oshirilib, bu tarmoq yangi drayverga aylandi. Viloyat sanoatida bu sohaning ulushi 7 foizdan oshdi.

Sirdaryoda mamlakatimiz elektr energiyasining uchdan bir qismi, charm mahsulotlarining 16 foizi va farmasevtika mahsulotlarining 10 foizi ishlab chiqariladi.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida imkoniyatlar hali koʻpligini taʼkidlash zarur. Jumladan, Sirdaryoning yer, suv va tabiat resurslari boy. Aholi jon boshiga ekin maydonlari boshqa hududlarga nisbatan 2-3 baravar koʻp. Viloyatda qishloq xoʻjaligini suv bilan taʼminlanganlik darajasi ham yuqori. Bu sohaga ilm va innovatsiya olib kirilsa, mahsulot yetishtirish hajmi va eksportini oshirish mumkin.

Bu imkoniyatlarni ishga solib, Sirdaryoni sanoat, tadbirkorlik, qishloq xoʻjaligi, taʼlim va tibbiyot boʻyicha “ilgʻor innovatsiyalar hududi”ga aylantirish borasida muhtaram prezidentimiz belgilab bergan vazifalar doirasida amaliy ishlarni kuchaytirishimiz zarurligidan dalolat beradi.

***Guliston davlat universiteti rektori,
t.f.d., professor Xodjiyev Muxsin Tadjiyevich***

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1-SHO‘BA. HUDUDLARNI SANOATLASHTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI: XALQARO TAJRIBA VA YANGI TEXNOLOGIYALAR

СЕКЦИЯ 1. ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

SECTION 1. GLOBAL TRENDS IN REGIONAL INDUSTRIALIZATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND NEW TECHNOLOGIES

Turdiqulov Toirqul Kemal Chelik	SANOAT CHATISHTIRISH USULINI QO‘LLASH ASOSIDA GO‘SHT YETISHTIRISHNI KO‘PAYTIRISH	34
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	IMPORTNI QISQARTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISHNI KENGAYTIRISH: O‘ZBEKISTON SANOAT SIYOSATI TAJRIBASI	38
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	MAISHIY VA SANOAT CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY METODOLOGIYASI	43
Халижанов Дилшод Эргашбекович	РАЗВИТИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН (СЭЗ) В УЗБЕКИСТАНЕ	53
Begimkulov Javohirbek Zheng Wei	GLOBAL TRENDS AND INTERNATIONAL PRACTICES IN THE TOURISM INDUSTRY	59
Yaxyoev Oybek	HUDUDLARNI SANOATLASHTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI: XALQARO TAJRIBA VA YANGI TEXNOLOGIYALAR	63
Isroil Abdalimov Qo‘ziboy o‘g‘li	ENGLISH TOURISM TERMINOLOGIES AND THEIR USAGE IN THE WORLD INDUSTRY	68
Eshmurodov Dilmurod Dusmurod o‘g‘li Yunusov Alisher Pardayevich Hasanboyeva Sarvinoz Fayzullo qizi	PAXTANI TABIIY XUSUSIYATLARINI SAQLAGAN HOLDA UNI HAVODAN AJRATISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH	71
Davlatov Po‘lat Xasanova Sarvinoz Matxaliqova Muxayyo	TEKIS EGILISHDA ELASTIK KO‘CHISHLARNI TALABALARGA METODIK QO‘LLASH TAHLILI	74
Xo‘jaboyeva Yulduz	GLOBAL IQTISODIY INQIROZ: SABABLAR VA OQIBATLAR	79
Qabulov Ibrohim Mamatqul o‘g‘li Yuldasheva Dilorom Xusniddin qizi	INOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PAXTANING IFLOSLIGI VA NAMLIGINI ANIQLASH, SAQLASH OMBORLARIDA SAQLANAYOTGAN PAXTANING SIFATINI NAZORAT QILISH	82
Sherbekova Kamola Norbek qizi	MAHSULOTLAR EKSPORTINING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	87
Abdulayev Abdurahmon Rahmonov Valijon Xusniddin Xaydarov Bahriddin o‘g‘li	YARIMSILINDR SHAKLIDAGI SHAFFOF PLYONKALI QUYOSH ISSIQXONALARINING HARORAT REJIMLARI VA UNING ASOSIY PARAMETRLARINI O‘RGANISH	91
Nurmuxamedov Axmad Anvarovich Kaxarov Oybek Abdimurot o‘g‘li Narzullayeva Feruza Ashir qizi	TO‘QIMACHILIK SANOATIDA INNOVATSION MENEJMENT: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XORIJIY TAJRIBA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	95

Qudratov Alisher Alijanovich Usanova Sarvinoz Rashid qizi	HUDUDLARNI SANOATLASHTIRISH VA INNOVATSION HUDUDGA AYLANTIRISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJIRIBA, MUAMMO VA YECHIMLAR	99
Raimova Charos Baxrom qizi Zokirova Shirin Solimjon qizi Egamberdiyeva Durdona Asqarali qizi	NITRILGIDRATAZANING BIOTEXNOLOGIYADA QO‘LLANILISHI	103
Raxmatov Komoliddin Uralovich Odilova F.N Usanova S.R.	AGRAR SEKTORNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	109
Sherqulova Nargiza Rustambekovna Hamidova Iroda Olimjon qizi	MODIFIKATSIYALANGAN IPAK TOLALI GAZLAMALARNING MEXANIK XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISH	112
Mukhlisa Shodmonova Tohir Bozorov	ENZYME ACTIVITY CHARACTERISTICS OF BACTERIA ISOLATES ISOLATED FROM PLANTS	114
Tashmurotov Asatullo Nasibullayevich Nurmatov Amirbek Bahriddin o‘g‘li Tursunmurodova Aziza Xamidullo qizi Xamraqulov Dildora Ahmadjon qizi	MAMLAKATIMIZ TASHQI SAVDO FAOLIYATIDA OZIQ- OVQAT SANOATINING TUTGAN O‘RNI VA OZIQ-OVQAT SANOATINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA INTENSIV TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	117
L.A.Yettibayeva, M.Turdibekova, Z.Abduazimova S. Ergasheva, R.Ashiraliyeva, M.Safarova	YASHIL NANOTEXNOLOGIYA ASOSIDA BARQAROR QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIQ OVQAT XAVFSIZLIGI UCHUN MENTOL VA AMINOKISLOTALAR ASOSIDA BIOAKTIV NANOZARRACHALAR SINTEZI	124
Tursunov Mirfayzi Raximqul o‘g‘li Kasimov Shodibek Islamovich Turdibekova Muxlisa Zufar qizi Mirzayeva Gulnoza Komiljon qizi Ashiraliyeva Rayxona Baxrom qizi	ICHIMLIK SUVI TARKIBIDAGI TEMIR (III) IONLARINI VOLTAMPERMETRIK USUL YORDAMIDA ANIQLASH	127
Turakulov Mamaraym Maxmudov Islom Rustam o‘g‘li	TAKOMILLASHTIRILGAN QURITGICH YORDAMIDA SOYAKI USULDA MAYIZ TAYYORLASH	129
A.З. Маматов Б.Ш.Сайфуллаев Ў.Н.Саитмуратов	ОБ ОБОБЩЁННОМ РЕШЕНИЯ ОДНОЙ ПОЛУЛИНЕЙНОЙ ЗАДАЧИ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ	132
Sattorkulov O.T. Odilova F.N. Usanova S.R.	UY XO‘JALIKLARINI RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI	134

Sattorkulov O.T. Odilova F.N. Usanova S.R.	AGRAR SEKTORDA TUZILMAVIY O‘ZGARISHLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMI	139
O.T.Сатторкулов С.Р.Усанова М.А.Анваров	ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТДА ЗАМОНАВИЙ СТРАТЕГИЯЛАР	142
O.T.Сатторкулов С.Р.Усанова М.А.Анваров	ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАРАЁНИ	148

**2-SHO‘BA. YANGI SANOATLASHTIRISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING
MOLIYAVIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI (VOSITALARI)NI TAKOMILLASHTIRISH
INVESTITSIYON JOZIBADORLIGINI OSHIRISH, XORIJIY INVESTITSIYALARNI
JALB ETISHGA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR**

**СЕКЦИЯ 2. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСОВО-ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ
(ИНСТРУМЕНТОВ) НОВОЙ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ, ПОВЫШЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ,
СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К ПРИВЛЕЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ**

**SECTION 2. IMPROVING FINANCIAL AND LEGAL MECHANISMS (TOOLS) OF NEW
INDUSTRIALIZATION AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES, INCREASING
INVESTMENT ATTRACTIVENESS, MODERN APPROACHES TO ATTRACTING
FOREIGN INVESTMENT**

Yusupov Ravshan	FINANCIAL INCLUSION IN INDIA: HOW POST-PANDEMIC INITIATIVES ARE TRANSFORMING LIVES AND BOOSTING THE ECONOMY	155
Qudratov Alisher Alijanovich Bo‘riboev Qobil G‘ayrat o‘g‘li	KORXONALARDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI MODERNIZATSIYALASH HISOBIDAN MAHSULOT TANNARXINI PASAYTIRISHNING MOLIYAVIY MASALALARI	160
Ruzieva Dilafruz Fahrudinovna	METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE INVENTORY PROCESS AT AN AGRICULTURAL ENTERPRISE BASED ON THE GENERALIZATION OF FOREIGN AND DOMESTIC PRACTICE	165
Халимжанов Дилшод Эргашбекович	МЕТОДЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЫЧАГОВ В НАЦИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ	175
Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich	BYUDJET TASHKILOTINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	178
Ravshan Yusupov	FINANCIAL INCLUSION IN UZBEKISTAN	187
Berdiyev G‘ayrat Ibragimovich	O‘ZBEKISTONDA UY XO‘JALIGI SEKTORI TARKIBINING O‘ZGARISHI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY JARAYONLARGA TA‘SIRI	190
Allayarova Mastura Kudratullayevna	O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTGA ERISHISHDA IJTIMOY HIMOYANI ROLINI OSHIRISH	193
Obilov Mirkomil Rashidovich	TADBIRKORLIK HAMDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHOLI TURMUSH DARAJASIDA TUTGAN O‘RNI	198
Gulmuratov Sirojiddin Nuritdin o‘g‘li	O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING ROLI VA KAMCHILIKLARI	208

Yusufaliyev Olimjon Abduraxmonovich Pardaboyev Quvonchbek Rustam o'g'li	ISHLAB CHIQARISH BIRLASHMALARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR	211
Ergashev Javohir Jahongir o'g'li	SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIGA O'TISH BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNI SAMARALI USULI SIFATIDA	217
Sotiboldiyev Asadbek Hasan ugli	THE EFFECTS OF POVERTY IN CENTRAL ASIAN DEVELOPING COUNTRIES: CHALLENGES AND SOLUTIONS	223
Jo'raqulov Muhammaddin	O'ZBEKISTONDA VALYUTA DEPOZITLARIGA ISHONCH: HOLAT VA ISTIQBOLLAR	227
Azimov Shohrux Sarvarjon o'g'li	YOSHLAR O'RTASIDA KREDIT OLISH SABABLARI VA MOLIYAVIY XATTI-HARAKATLAR	230
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	DEVELOPMENT OF A COMPREHENSIVE-TARGETED PROGRAM AND FORECAST FOR IMPROVING THE PRACTICE OF CHARGING VALUE ADDED TAX	232
Erkaboyeva Feruza Alijon qizi	BANKLARDA QARZ YUKI KO'RSATKICHINING BAHOLASH USULLARI	236
Галиев Салават Вильданович	КРАТКИЙ ОБЗОР ТОРГОВЫХ И ИНВЕСТИЦИОННЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	238
G'ofurova Gulsanam Islomovna	AHOLINING JAMG'ARMA YURITISH ODATLARIGA BANK MARKETINGI TA'SIRI	243
Рахматов Олимжон Орифжонович	ПРИНЦИПЫ И ФУНКЦИИ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЕЙ	246
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	O'ZBEKISTONDA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATI IQTISODIYOTNING BARQAROR O'SISHIGA TA'SIRI	251
Urazmatov Jonibek Musurmanovich Safarova Maftuna Farhod qizi	IQTISODIYOTDA RAQOBATNING MOHIYATI VA OBYEKTIV ASOSLARI	256
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA BYUDJETGA TUSHUMLAR SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARNING TAXLILI	262
Jo'raqulova Durdona Zubaydullayevna	MUDDATLI DEPOZITLAR VA JAMG'ARMA STRATEGIYALARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	270
Abduvohidova Durdona Sobirjon qizi	IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNING O'RNI	273
Oymatova Gulnura Mirjamolovna	SANOATLASHGAN HUDUDLARNING INVESTITSIYON JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA SOLIQ NAZORATINING O'RNI VA AHAMIYATI	277
Mamatqulov Davronbek Abduraimjon o'g'li	MOBIL BANKING XIZMATLARINING OMMALASHUVI VA MIJOZLAR HARAKATI	281
Muratjanova Lobar Muratjan qizi	DAVLAT BYUDJETI MABLAG'LARINI HUDUDLARARO QAYTA TAQSIMLASH MASALALAR	285
Norqulova Sarvinoz Sharofiddinovna	FINTECH STARTAPLARNING AN'ANAVIY BANK TIZIMLARIGA TA'SIRI	290
O'rolov Ilhomjon Olimjon o'g'li	BANK XODIMLARINING MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MADANIYATI VA SODIQLIKKA TA'SIRI	293

Temirova Sevinch Shavkat qizi	RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMI: KREDIT VA LIKVIDLIK RISKLARINI KAMAYTIRISH	295
Rixsiboyev Hikmatilla	O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR BANDLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI	298
Malikova Sevinch Telman qizi	XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS) VA ULARNING O‘ZBEKISTONGA INTEGRATSIYASI	302
Saparaliyev Komronbek G‘ulom o‘g‘li	BANK CALL-MARKAZLARI XIZMATLARI SIFATI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	305
Sayfullayeva Sevinch Umidjon qizi	RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, UNING ASOSIY TAMOYILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	307
Shodmonova Odina G‘ofur qizi	SUG‘URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TO‘SQINLIK QILAYOTGAN MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	312
Toshpolatov Abduvohid	O‘ZBEKISTONDA BANK XAVFSIZLIGIDA KIBERXAVFSIZLIKNING O‘RNI	316
Toshmamatova Zuhra	QISHLOQ AHOLISI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING O‘RNI	319
Tuzaliyev Doniyor Abdurahimovich	TALABALAR ORASIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK DARAJASINI BAXOLASH	322
Xalilov Latifjon Rustamovich	MOLIVAVIY SAVODXONLIKNING BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISHGA TA‘SIRI	325
Xolboyev Jamshid Shavkatovich	OILAVIY BYUJETNI YURITISHDA AYOLLARNING BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBASI	327
Ibadullayev Nodir Yangibayeva Sevinch	O‘ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI	330
Bekmuxeamedova Barno O‘ktamovna Abdug‘anieva Sh	O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTISH YO‘LLARI	334
Уразматов Жонибек Мусурманович	ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИГИНИ УНДИРИШ АМАЛИЁТИНИ ВА ПРОГНОЗИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ	338
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o‘g‘li	KORXONALARDA TO‘LOVGA QOBILİYATSIZLIK TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	347
Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	BOJXONA MAQSADLARIDA BARQARORLIK REYTINGI NATIJALARI TAHLILIGA OID	352
Турдикулова Гулмира Обидкул кизи	СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ АСОСЛАРИ	358
Бекмухамедова Барно Уктамовна Вайтова Юлдуз Сайдуллаевна	РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА В УЗБЕКИСТАНЕ	364
Shakirova Nigora Xabibullayevna	MEHNAT BOZORIDA UY XO‘JALIKLARINING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH	369
Турдикулова Гулмира Обидкул кизи	ЮРИДИК ШАХСЛАРДАН ОЛИНАДИГАН ФОЙДА СОЛИГИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШ	373
Eshmuratova Iroda Shuxrat qizi	MIRZO ULUG‘BEK DAVRIDA BOZOR	376
Xidirnazarov Azamat Mamarajabovich	FOND BOZORLARI: IQTISODIY O‘SISHDA ULARNING RO‘LI	380

3-SHO‘BA. XITOY TAJRIBASI ASOSIDA SIRDARYO VILOYATIDA BIO-FARMATSEVTIKA, QURILISH MATERIALLARI, QISHLOQ XO‘JALIGI, OZIQ-OVQAT, ELEKTRO-TEXNIKA, TIBBIYOT, TA‘LIM SOHALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ILG‘OR INNOVATSIYALAR HUDUDIGA AYLANITIRISH ISTIQBOLLARI

СЕКЦИЯ 3. НА ОСНОВЕ ОПЫТА КИТАЯ ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕВРАЩЕНИЯ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В РЕГИОН ПЕРЕДОВЫХ ИННОВАЦИЙ ЗА СЧЕТ РАЗВИТИЯ БИОФАРМАЦЕВТИКИ, СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ, СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА, ПРОДОВОЛЬСТВИЯ, ЭЛЕКТРОТЕХНИКИ, МЕДИЦИНЫ, ОБРАЗОВАНИЯ

SECTION 3. PROSPECTS FOR TRANSFORMING SYRDARYA REGION INTO A ZONE OF ADVANCED INNOVATIONS THROUGH THE DEVELOPMENT OF BIOPHARMACEUTICALS, BUILDING MATERIALS, AGRICULTURE, FOOD, ELECTRICAL ENGINEERING, MEDICINE, AND EDUCATION, BASED ON CHINESE EXPERIENCE

Н.К.Машарипов, М.А.Алибеков, У.А.Раймова, Zhang Wen	PROSPECTS FOR VEGETABLE CROP PRODUCTION IN THE MIRZACHUL OASIS	383
Firdavs Rahmatov Sakin Vural VARLI Orifjon Raxmatov Nodira Ablakulova Kemal Çelik	INSON SALOMATLIGI VA KASALLIKLARIDA ICHAK PARABAKTEROIDLARINING ROLI	388
Tuxtamishova Gulnoza Karshiboyevna Xayrullayeva Shaxzoda Ziyodulla qizi	SIRDARYO OZIQ-OVQAT SANOATINING YANGI BOSQICHI XITOY TAJRIBASI VA INNOVATSION YONDASHUVLARI ASOSIDA	392
Kerim Burak BEYGE, Firdavs Rakhmatov, Sakin Vural VARLI, Orifjon RAKHMATOV	TARIMSAL VERIMLILIGI ARTIRAN YAPAY ZEKA DESTEKLI AGRIMED UYGULAMASI	395
Almamatova Manzura Hu Yili	TRANSFORMING SIRDARYO REGION INTO AN INNOVATION HUB BASED ON CHINA'S EXPERIENCE: PROSPECTS FOR EDUCATIONAL DEVELOPMENT	404
Tovbayev G‘ofur A‘zamqulova Fotima	SIRDARYO VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATINI XITOY TAJRIBASI ASOSIDA INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK IMKONIYATLARI	408
Sh.M.Turdimetov	SIRDARYO VILOYATI TUPROQ UNUMDORLIGI KO‘RSATKICHLARI VA RAQAMLASH TIRISH NATIJALARI	412
Axatov Samandar Anvar o‘g‘li Zhang Wen	SHO‘R YUVISHNING UMUMIY ME‘YORINI HISOBLASH	416
Hayitaliyeva Madina Musurmanov Alisher Amirqulovich Zhang Wen	LALMI TUPROQLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	418
Kudratov Xoyitjan Asat o‘g‘li Zhang Wen	O‘ZBEKISTON TOG‘LI HUDUDLARIDA TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	420
Musurmanova Mokhinur Murot kizi Zhang Wen	MAINTAINING AND INCREASING SOIL FERTILITY	425

Komilov Nozimjon Abdurakhimovich Mirsharipova Guljaxon Kamalovna Zhang Wen	ISSIQXONADA POMIDOR YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG‘ORISHNING AFZALLIKLARI	431
Sattarov S.M. Aripov I.K.	SUV-TUZ SUYUQLIGINING TO‘YINMAGAN TUPROQDA HARAKATI	435
Shukurulloyev Sunnatullo Bahrom o‘g‘li	THE PROSPECTS FOR ADVANCED INNOVATION THROUGH EDUCATIONAL DEVELOPMENT IN THE SYRDARYA REGION: LESSONS FROM CHINA’S XINJIANG AUTONOMOUS REGION	438
Ermatov Valijon Abdivaitovich Raxmatullayev Ravshan Qushmurodovich Batirov Baxtiyar Ko‘nishovich Aynaqulov Komiljon Baxtiyor o‘g‘li	XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA SIRDARYO VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH IMKONIYATLARI VA AHAMIYATI	442
Otamurodova Iroda Anvar qizi Axmedov Abbos Ravshan o‘g‘li Majidov Sardor Abdijalil o‘g‘li	“ISATIS TINCTORIA L” O‘SIMLIGI ILDIZI TARKIBI KIMYOVIY TAHLILI	445
Tashbayeva Shoirra Kasimovna Umirova Nilufar Omanbayevna	SIRDARYO VILOYATIDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	448
Joniqulov Behzodbek Ravshan o‘g‘li	SIRDARYO VILOYATI ISHLAB CHIQRISH KUCHLARINI HUDUDIIY TASHKIL ETISH MASALALARI	451
Ermatov Valijon Abdivaitovich Raxmatullayev Ravshan Qushmurodovich Batirov Baxtiyar Ko‘nishovich To‘raqulova Nilufar Mamraym qizi	XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA SIRDARYO VILOYATI CHORVACHILIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	456
Saydullayeva Gulnoza Oybek qizi Sanayev Ermat Shermatovich	OQSIL-UGLEVOD KOMPOZITSIYALARINING KOLBASA NONLARIGA VA TO‘G‘RALGAN YARIM TAYYOR GO‘SHT MAHSULOTLARINING ISTE‘MOL XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI	459
Suyarova Dildora Amanullayevna	GETEROSIKLIK FITAGARMONLARNING AMINOKISLOTALAR BILAN HOSILALARINING O‘SIMLIK HARAYOTIDAGI AHAMIYATI	464
To‘raqulov Mamraym Ermatov Valijon Abdivaitovich Raxmatullayev Ravshan Qushmurodovich	XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA SIRDARYO VILOYATIDA DEHQONCHILIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA AHAMIYATI	466

Batirov Baxtiyar Ko'nishovich		
Turdikulova Kumushoy	Xitoy tajribasi asosida Sirdaryo viloyatida bio-farmaseftika, qurilish materiallar, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, elektro-texnika, tibbiyot, ta'lim sohalarini rivojlantirish orqali ilg'or innovatsiyalar hududiga aylantirish istiqbollari	470
Allayorova Dilrabo	MIRZACHO'L IQLIM SHAROITLARI VA QUYOSH ENERGIYASI JAMLAGICHLARINING NAZARIY ASOSLARI	474
Almamatov Bahromjon O'ktamovich Xoldarov Alisher Zarif o'g'li Bakiyev Rifat Serverovich Shodmonova Sevinch Shavkat qizi	BATAT QALAMCHALARI POYASINING O'SISH JARAYONIGA YANTAR KISLOTASINING TA'SIRI	477
DJUMAYEVA ZARINA FURKATOVNA	O'ZBEKISTONN YARIMCHO'L ZONASIDAGI INTRODUKSIYA QILINGAN ONOBRICHIS (FABACEAE) TURKUM AYRIM TURLARINING URIG'DAN KO'PAYTIRISH ISTIQBOLLARI	481
Azimova Nasiba	POLITELIN PLYONKALI ISSIQXONALARNING ENERGETIK SAMARADORLIGI	486
Bababekov Umidbek Jurabekovich Maxmudov Islom Rustam o'g'li Kushiyeva Muxayyo Anvar qizi	IKKI IZLI OSMA BORONA TISHLARI UZUNLIGINI ANIQLASHDA OLIB BORILGAN TAJRIBALAR NATIJALARI	489
Raxmatova Madina Qodir qizi Qo'shiyev Habibjon Hojiboboyevich Xusanov Toxir Sunnatovich	BACILLUS PARALICHENIFORMIS M11 SHTAMMINING FITOPATOGEN ZAMBURUG'LARGA QARSHI ANTIFUNGAL XUSUSIYATLARI	494
R.Bazarova	POLYGONUM AVICULARE L. O'SIMLIGINING O'SISH VA RIVOJLANISHI	497
F.Sh.Ergasheva B.Boltayeva	SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA AYRIM MAHALLIY ANOR NAVLARINI YETISHTIRISHNING ZARURATI	505
Mehmonova Nilufar Alijon qizi Ergasheva Farog'at Sheraliyevna	REGENERATIV PAXTA VA BUG'DOY YETISHTIRISHDA BACILLUS BAKTERIYASI AVLODINING FIZIOLOGIK VA BIOKIMYOVIY TA'SIRI	508
Ergasheva N. A.	INTRODUCTION OF THE MEDICINAL PLANT ECHINACAE PURPUREA (L.) MOENCH TO THE SOIL AND CLIMATIC CONDITIONS OF THE SYRDARYA REGION	512
I.E.Otaqulov N.S.Umirov	FENBENDAZOLNING TURLI UGLEVOGLAR BILAN KIRITMA KOMPLEKSLARINI TAYYORLASH VA BAHOLASH	515
Камолитдин СУЛТОНОВ Сакин ВУРАЛ ВАРЛИ Пулатжон ЭГАМБЕРДИЕВ	КИШИМИШБОП УЗУМ НАВЛАРИНИ ЧАНГЛАНИШИГА ЎСТИРУВЧИ МОДДАЛАРНИ ҚЎЛЛАШ МУДДАТЛАРИНИ ТАЪСИРИ	518

Иброҳим ЖЎЛБЕКОВ		
X.K.Egamberdiyev A.D.Matchanov	EYXORNIYA CRASSIPES, PISTIA STRATIOTES O‘SIMLIKLARI EKSTRAKTLARI KIMYOVIY TARKIBI	527
Hojiboboyeva Sarvinoz Habibjon Qizi	O‘ZBEKISTON SHAROITIDA O‘SADIGAN RUBIA TINCTORUM L. TURINING BIOLOGIK VA KIMYOVIY XUSUSIYATLARI	531
Jumanov Jo‘rabek Abdujalol o‘g‘li	SIRDARYO VILOYATIDA TUPROQLARI SHAROITIDA G‘O‘ZA YETISHTIRISH TARIXI VA TEXNOLOGIYASI	536
Ismoilova Sh. S. Abduraxmonova U. K. Yettibayeva L. A.	RHIZOPLACA CHRYSOLEUCA TARKIBIDAN USNIK KISLOTASINI YUSSX USULIDA ANIQLASH	544
Otabekov Javdod Nurulla o‘g‘li	TOMORQA XO‘JALIKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	547
Jankorazov Abror Mamrajab o‘g‘li Odilova Ruhshonabonu Xamidjon qizi Xolbo‘tayeveva Marjona Shukuroлло qizi Shomurodov Rovshanjon O‘ktamjon o‘g‘li	BOYITILGAN NON MAHSULOTLARI OLISH TEXNOLOGIYASI ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	553
Jo‘rayeva S.E. Djurayev T.A.	INDOL VA UNING OLINISH USULLARI	557
Kurdashev Kudrat Davlyatovich Khujabekova Dildora Ergash qizi Zhang Wen	MIRZACHO‘L VOHASI SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARINING GIDROGEOLOGIK SHAROITLARI	561
Abdurashidova Malokhat Abdukodirovna Umrzaqova Feruza Abdurashid qizi	ORGANIZATION OF THE INTRODUCTION OF PHACELIA TANCETIFOLIANI IN THE CONDITIONS OF SIRDARYO	566
Sanayev Sobir Toiyrovich Aynaqulov Komiljon Baxtiyor o‘g‘li To‘raqulova Nilufar Mamarayim qizi	SIRDARYO VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA ISTIQBOLLI BEHI NAVLARINI TANLASH NATIJALARI	570
Mamatkulova Dilafruz Mansurovna Botirova Laziza Axmatovna	SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA HIBISCUS ESCULENTUS L. O‘SIMLIGI BIOLOGIYASI	575
Abduraxmonov Sarvar Mamatkarimovich Jumanov O‘tkir To‘lqin o‘g‘li Kuliev Tojiddin Xamdovich	MAXSAR KOLLEKSION NAMUNALARINING SHO‘RLI MUHITGA CHIDAMLILIGI	578
Nasredinov Dilshod Abdukaimovich Hasanova Holida olimjon qizi	INTERFAOL TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OZIQ-OVQAT SANOATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NASREDINOV DILSHOD ABDUKAIMOVICH	581

Fayzullayeva Dildora Hamdullo qizi Rashidov Azimjon Shuxrat o‘g‘li		
Otabekov Javdod Nurillo o‘g‘li	QISHLOQ JOYLARDA KICHIK CHORVACHILIK TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	586
Qurbanov Ermamat Sayfiddinovich Ungarov Azizbek Abdumo‘min o‘g‘li	SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA INFRA QIZIL NURLAR YORDAMIDA POLIZ MAHSULOTLARINI QURITISH BO‘YICHA TADQIQOTLAR	590
X.K. Abdushukurova A.D.Matchanov Sh.R. Beknazarova G. Omonova O‘.Yo‘ldoshova	RAGOSINNING SUVDA ERUVCHAN SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARI	595
Otamurodova Marjona Oybek qizi	ROSA CANINA O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI	600
Safiyeva Nigora Nurmuxamadovna	QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH TIZIMI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR, ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI	604
Sharopova Shaxnoza Samadova Umida Sanjar qizi	KARTOSHKANI KUNDALIK HAYOTDA UY HO‘JALIGIDA BIOPEREPARATLAR YORDAMIDA SAQLASH USULLARI	609
J.X.Karshibayev F.B. A‘zamov	SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA EKMA ZA‘FARON CROCUS SATIVUS L. NING EKOFIZIOLOGIK HUSUSIYATLARI	612
Baratova Dilnoza Nuritdinovna	SIRDARYO VILOYATINING TABIIY RESURSLAR IMKONIYATLARI VA ULARDAN FOYDALANISHDA MUAMMOLAR	619
Inoyatov Islombek Ilhom o‘g‘li Ablakulova Nodira Abduvaxobovna, Tojikulov Abduxalil Abdujalil o‘g‘li, Alixonova Maftuna Eralixon qizi	FUSARIUM ZAMBURUG‘LARINING TURLARI, O‘SISH MUHITLARI, MIKOTOKSINLARI	623
Mamatov Alisher Zulunovich Pardayev Xonimqul Normatovich Saitmuratov O‘lmasbek Nurullo o‘g‘li Sayfullayev Behruz Sharof o‘g‘li	PAXTA XOMASHYOSINING QURUTISH JARAYONIDA HARORAT VA NAMLIKNI ANIQLASH UCHUN PARABOLIK TIPDAGI BIR CHEGARAVIY MASALA	627
Gapparova, F.J. Djurayev T.A.	DORIVOR ZANJABIL (ZINGIBER OFFICINALE ROSCOE) ILDIZ TUGANAGI TARKIBIDAN BIOLOGIK FAOL MODDA GINGEROLNI SOKSLET EKSTRAKTSIYASI USULIDA AJRATIB OLISH	631
Esanbayeva Nasiba Yangibayevna Zhang Wen	TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA BEDA O‘SIMLIGINING AHAMIYATI	635
O‘razaliyeva Maftuna Dilmurod qizi	KUZGI BUG‘DOYNI BARGIDAN OZIQLANTIRISH USULINING HOSIL OSHISHIGA TA‘SIRI	639


Biologik va usnik kislotaning farmakologik xususiyatlari yaxshi oʻrganilgan va antibakterial, virusga qarshi, yalligʻlanishga qarshi, ogʻriq qoldiruvchi, protozoyaga qarshi yoki insektitsid faolliklarni oʻz ichiga oladi .[2] Ushbu birikma saratonga qarshi salohiyati boʻyicha yaxshi oʻrganilgan. .[3] Usnik kislota kosmetika sanoati tomonidan antiperspirant yoki tish pastalari tayyorlashda qoʻshimcha moddalar sifatida qoʻllaniladi .[4]

Lishayniklarning ayrim turlari ikkilamchi metabolitlari tarkibida usnik kislota borligi tufayli ular viruslarga qarshi, yalligʻlanishga qarshi, bakteriyalarga qarshi ishlatiladi.[5] Usnik kislota farmatsevtikada afzal koʻriladigan atseton, etanol, etilatsetat erituvchilarida turlicha miqdorda eriydi.[6-7] Lishayniklar tarkibidagi usnik kislotasining eruvchanligi distillangan suv, etanol, glitserin va propilenglikol erituvchilarida ham oʻganildi.[8] Bundan tashqari, bu erituvchilarda ekstraksiyalash usullari oʻganilmoqda va usnik kislotasini eng yaxshi erituvchisini tanlash, ajratib olish ustida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Lishaynik namunalari Zarafshon daryosi oʻrta oqim havzasi boʻylab yigʻilgan. Lishaynik namunalari havoda quritildi va foydalanishga qadar 4 °C saqlandi. Namunalar distirlangan suvda yuvilib, qoldiqlardan tozalandi, soʻngra 24 soat davomida 80 °Cda quritish shkafida quritildi. Quritilgan lishaynik tallomi chinni havonchada mayda kukun holiga qadar maydalandi

Rhizoplaca chrysoleuca namunasidan 5 gr analitik torozida tortib olindi va 100 ml li stakanga solindi. Stakandagi namunaga 50ml aseton quyilib 1 soat davomida magnitli aralashtirgichda aralashtirildi. Aralashma 7 kun davomida qoldirildi, soʻngra yana magnitli aralashtirgichda 1 soat davomida aralashtirildi.

Aralashma firtr qogʻoz yordamida fitrlandi. Filtrat 50ml li tubi yumaloq kolbaga solinib suv hammomida 45-50 °Cda asetonni haydab aralashma tozalandi. Asetondan tozalangan namuna 10 ml erituvchida eritildi va qayta bugʻlandi, natijada olingan namuna sariq kukun shakliga aylantirildi va massa hosildorligini (mg g) hisoblash uchun torozida tortildi.



Ekstraktdan ajratilgan usnik kislotasining YuSSX spektri.

Xulosa. *Rhizoplaca chrysoleusa* lishaynigining aseton ekstraktida usnik kislota mavjudligi aniqlangandan so‘ng, *Rhizoplaca chrysoleusa* quruq massasining 100 gramida 1451 mg usnik kislota borligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich *Rhizoplaca chrysoleusa*ning quruq massasining 1,4 foizini tashkil qiladi. Tadqiqotning keyingi bosqichlarida *Rhizoplaca chrysoleusa* lishaynikdan ajratib olingan usnik kislotasining metallar bilan komplekslarini olish va xossalarini o‘rganishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.M. Mustafayev Botanika Toshkent O‘zbekiston 2002 yil 300-302 bet
2. Galanty A, Paško P and Podolak I (2019) Enantioselective activity of usnic acid: a comprehensive review and future perspectives. *Phytochemistry Reviews* 18, 527–548.
3. Araújo AAS, De Melo MGD, Rabelo TK, Nunes PS, Santos SL, Serafini MR, Quintans-Junior LJ and Gelain DP (2015) Review of the biological properties and toxicity of usnic acid. *Natural Product Research* 29, 2167–2180.
4. Ingolfssdottir K (2002) Molecules of interest: usnic acid. *Phytochemistry* 61, 729–736
5. Ingolfssdottir K (2002): Molecules of interest usnic acid. *Phytochemistry* 61: 729–736.
6. Alfonsi K, Colberg J, Dunn P J, Fevig T, Jennings S, Johnson TA, Kleine HP, Knight C, Nagy MA, Perry DA. (2008) Green chemistry tools to influence a medicinal chemistry and research chemistry based organisation. *Green Chemistry*, 10, 31-36;
7. Prat D, Wells A, Hayler J, Sneddon H, McElroy CR, Abou-Shehada S, Dunn PJ. (2015) CHEM21 selection guide of classical-and less classical-solvents. *Green Chemistry*, 18, 288-296.
8. Rafi Ahmad, Paulina Borowiec, Anne Bergljot Falck-Ytter and Knut Olav Strætkvern Extraction, Solubility and Antimicrobial Activity of (-) Usnic Acid in Ethanol, a Pharmaceutically Relevant Solvent Department of Natural Sciences and Technology, Inland Norway University of Applied Sciences (INN), Campus Hamar, P.O. Box 4010, N-2306 Hamar, Norway Received: March 22nd, 2017; Accepted: May 19th, 2017
9. Shrestha G, Clair LLS. (2013) Lichens: a promising source of antibiotic and anticancer drugs. *Phytochemistry Reviews*, 12, 229-244;
10. Demet Cansarana*, Demet C, etinb , M. Gökhan Halıcıc , and Orhan Atakold Determination of Usnic Acid in Some *Rhizoplaca* Species from Middle Anatolia and their Antimicrobial Activities *Z. Naturforsch.* 61 c, 47D51 (2006); received July 26 August 31, 2005

TOMORQA XO‘JALIKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Otabekov Javdod Nurulla o‘g‘li

Guliston davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholi tomorqalaridan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslari yoritilgan. Tomorqa xo‘jaliklarining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri, ularning daromadlilik darajasi va rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, tomorqalarning o‘rtacha hajmi va ularning rentabelligi bo‘yicha ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida tomorqalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

. **Kalit so‘zlar:** Aholi tomorqalari, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy samaradorlik, daromad, innovatsiya, investitsiya, rentabellik

Abstract: This article discusses the economic foundations of the effective use of household plots in Uzbekistan. The impact of household plots on the country's economy, their profitability and development paths are analyzed. Data on the average size of household plots and their profitability are also reviewed. Based on the results of the study, proposals are put forward to improve the efficiency of household plot use..

Key words: Households, agriculture, economic efficiency, income, innovation, investment, profitability

Aholi tomorqalari O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi. So‘nggi yillarda tomorqachilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, tomorqalar ortiqcha mahsulotlarni sotish orqali qo‘shimcha daromad olish imkonini beradi. Ushbu maqolada tomorqachilik xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi.

O‘zbekistonda aholi tomorqa yerlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda muhim o‘rin tutadi. Tomorqa xo‘jaliklari orqali aholi o‘zining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, ortiqcha mahsulotni sotish orqali daromad ham oladi. Shu bois, tomorqa yerlaridan samarali foydalanish masalasi davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.02.2025 yildagi PF-22-son “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁷³ gi farmon ijrosini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilangan. Tuman va mahallalarning ixtisoslashuv bo‘yicha salohiyat va imkoniyatlaridan kelib chiqib, tomorqalarda yuqori daromadli mahsulotlar yetishtirishni yashil va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish orqali aholining yuqori daromadli mehnat bilan bandligini ta‘minlash va ularni kambag‘allikdan chiqarish.[1]

Mahallalarda har bir aholi tomorqasidan maqsadli va samarali foydalanish, jumladan, yerni tayyorlash, urug‘, ko‘chat va daraxtlar ekish, issiqxonalar qurish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha vazifalar va chora-tadbirlarning ijrosi ustidan qat’iy nazorat qilish tizimini yo‘lga qo‘yish


Suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan mahallalarda sug‘orish tizimini yaxshilash hamda yetakchi eksportchi tadbirkorlarni jalb qilish orqali aholi tomorqalarida bir xil tur va standartdagi eksportbop mahsulotlar yetishtirishni ta‘minlash;

Tomorqalar va uzoq muddatga ijaraga berilgan ekin yer maydonlaridan foydalanishda aholi va yetakchi tadbirkorlarning ko‘p yillik tajribasi va ko‘nikmalari hamda hududning tabiiy va iqlim sharoitidan kelib chiqib, tashqi va

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni


ichki bozorlarda xaridorgir mahsulotlar yetishtirish bo'yicha ixtisoslashuvni chuqurlashtirish kabi vazifalar maqsad qilib olindi.

Bugungi kunda O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi negizida Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilib 2025 yil Davlat budjeti parametrlarida Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish uchun ko'zda tutilgan mablag'larning 50 milliard so'm qismi Jamg'armaga o'tkazildi.hamda bu mablag'lar tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga tijorat banklari orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash, quritish, saqlash va qadoqlash loyihalari uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada kreditlar ajratish yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda respublikamiz jami yer fondini tahlil qiladigan bo'lsak aholi tomorqa yerlari jami yer fondining 2 % ni tashkil qilishiga guvoh bo'lamiz (1-rasm).



1-rasm: O‘zbekistonda jami yer fondining toifalar bo‘yicha taqsimlanishi⁷⁴

Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligi pasayib ketishining asosiy sababi, sohani rivojlantirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yetarli darajada amalga oshirilmasligi va e‘tibordan chetda qolishi tomorqa yer egalari faoliyatiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Aholi tomorqalarini rivojlantirish orqali real daromad miqdorini oshirish, aholini bandliligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. [4] Xorijiy davlatlarda qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi va ajratiladigan mablag‘lar miqdori mamlakatda yaratiladigan YAIM hajmiga bog‘liq. Shunday ekan, YAIM qancha ko‘proq yaratilsa, qishloq xo‘jaligiga ajratiladigan mablag‘ miqdori shuncha oshib boraveradi. Mamlakatda olib boriladigan pul-kredit siyosati aholini arzon va zaruriy mablag‘ bilan ta’minlash imkonini beradi. Tijorat banklari orqali beriladigan kreditlarning foiz stavkasining past yoki yuqoriligi, kreditlash mexanizmining qay darajada yo‘lga qo‘yilganligi tomorqa xo‘jaligi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Kredit foiz stavkasining yuqoriligi mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxining yuqoriligi aholining xarid



⁷⁴ Muallif ishlanmasi

qobiliyatini pasaytirish bilan birga aholining oʻrtacha daromadi va jamgʻarmasining kamayishiga olib keladi.

1- rasm⁷⁵

Tomorqa xoʻjaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yoʻllari


Moliyaviy qoʻllab-quvvatlash: Tomorqa yer egalariga mikrokreditlar ajratish mexanizmini takomillashtirish, kredit olish jarayonini soddalashtirish va foiz stavkalarini pasaytirish lozim. Bu aholining tomorqa xoʻjaliklariga boʻlgan qiziqishini oshiradi.

Ilgʻor agrotexnologiyalarni joriy etish: Tomorqa yerlarida zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish orqali hosildorlikni oshirish mumkin. Buning uchun fermerlar va tomorqa egalariga doimiy ravishda oʻquv-seminarlar tashkil etish zarur.

Maxsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirish: Tomorqada yetishtirilgan mahsulotlarni sotish uchun yangi bozorlar va savdo nuqtalarini tashkil etish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu mahsulotlarning tez va samarali sotilishiga yordam beradi.

Sugʻorish tizimlarini yaxshilash: Suv resurslaridan samarali foydalanish uchun tomorqa yerlarida zamonaviy sugʻorish tizimlarini joriy etish lozim. Bu suv tejamkorligini taʼminlab, hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tomorqa yerlarining meliorativ holatini yaxshilash: Tuproq unumdorligini oshirish uchun meliorativ tadbirlarni amalga oshirish, yaʼni



⁷⁵ Muallif ishlanasi

yerlarning sho‘rlanishini oldini olish, drenaj tizimlarini yaxshilash kabi ishlar muhimdir

3-rasm⁷⁶

**Qishloq xo‘jaligida tomorqa yer egalari faoliyatini rivojlantirish
bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:**

- qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar sonining boshqa tarmoqqa nisbatan kamligi;
- mijozning oshkora emasligi, “xufyona” daromadlar darajasining yuqori ekanligi;
- mijozning moliyaviy holatini, uning kredit to‘loviga layoqatliligini obyektiv baholash uchun zarur bo‘lgan ishonchli manbalarning yetarli emasligi;
- joriy hisob-raqamlar bo‘yicha aylanmalarning mavjud emasligi;
- tushumning asosiy oqimlarini naqd pullarda o‘tayotganligi;
- iqtisodiy (moliyaviy) bilimlarning yetarli emasligi (biznes-rejalarning sifatini past ekanligi);
- kreditlash maqsadlari, bank mahsulotlarining mohiyatini aniq tushunishning, bank bilan ishlash tajribasining mavjud emasligi;
- iqtisodiyotning real sektoridagi bir yildan ortiq muddatdagi investitsiyalar uchun zarur bo‘lgan resurslarning, ayniqsa, arzon va uzoq muddatli resurslarning yetarli emasligi;
- tomorqa yer egalarining huquqlarini himoya qilish borasidagi qonunchilikning takomillashmaganligi banklarga yuqori riskli bitimlarni moliyalashtirish imkonini bermayotganligi.

Ushbu ko‘rsatib o‘tilgan muammolarni bartaraf etish kichik yer egalari faoliyatini rivojlanishiga sabab bo‘ladi

⁷⁶ Muallif ishlanmasi